

**O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI FAROVONLIGINI
TA'MINLASH YO'NALISHLARI**

Ismoilova Rayxona

G'aniyev Rahimjon

Farg'ona davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” yo'nalishi

1-bosqich talabalari

Mirzakarimova M.

Ilmiy rahbar i.f.d., prof.

Har qaysi mustaqil davlatning negizini xalq, jamiyat va ularning ijtimoiy holati tashkil etadi. 2020 yilda respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan O'zbekistonda kambag'allikning mavjudligi e'tirof etildi va O'zbekistonda 4-4,5 mln. aholi ana shunday holatda ekanligi ta'kidlandi. Davlat o'z fuqarolari farovonligini ularning turmush sharoitlarini yaxshilabgina yo'lga qo'yishi mumkin. Shu qatori so'nggi yillarda yangilanayotgan yurtimizda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha turli davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda.

BMT ta'rifiga ko'ra, kambag'allik esa insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo'lmasligi, jamiyatda to'laqonli ishtirok etish uchun to'siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta'lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta'minlanish imkoniyatlari yetishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, kambag'allik — bu insonlar, uy xo'jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasizligi hamda nochorligi sanaladi.

Bundan tashqari, Jahon banki tomonidan 2015 yildagi 115 ta mamlakatda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida taklif etilgan uslubiyatga ko'ra, barcha mamlakatlar uchun 2011 yildagi narxlarda xarid qobiliyati pariteti bo'yicha qashshoqlik chegarasi 1,9, kambag'allik chegarasini esa mamlakatlar aholisi daromadlarining past, o'rta va yuqori darajalaridan kelib chiqib 1,9; 3,2; 5,5 va 21,7 AQSh dollari etib belgilash tavsiya etilgan.

Xalqaro amaliyotda kambag'allikni o'lchashning turli usullari mavjud:

1. Kambag'allik mutlaq (Poverty, absolute) usuli — ma'lum kambag'allik chegarasidan kam bo'lgan iste'mol yoki daromad darajasiga ega bo'lgan aholi yoki uy xo'jaliklari soni kiritiladi. Jahon tajribasida mutlaq kambag'allik chegarasining o'rtacha yillik miqdorini aniqlash uchun aholi jon boshiga YaIMning 25 foizi qabul qilingan bo'lib, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Kanada, Niderlandiya) mazkur ko'rsatkich nisbatan yuqoridir.

2. Kambag'allik nisbiy (Poverty, relative) usuli — daromadi jamiyatda shakllangan standart iste'molga yetmaydigan yoki o'rtacha yoxud mediana daromad darajasiga nisbatan belgilanadigan chegarada yashayotgan uy xo'jaliklari va individlar soni bilan belgilanadi.

Kambag'allik chegarasini aniqlashning nisbiy usuli kishining daromadini jamiyatning qolgan a'zolariga nisbatan taqqoslash orqali aniqlanadi (masalan: aholi daromadlari o'rtalamasining 50 foizi, 60 foizi va h.k.). Biroq nisbiy usul jamiyatdagi tengsizlik darajasini inobatga olsada, aholining barcha qatlami daromadi hamda kambag'allik darajasining o'zgarishini to'liq ifodalamaydi. Shunga qaramay, bir qator davlatlar kambag'allik chegarasini belgilashda nisbiy usuldan foydalanadi. Misol uchun, Vengriya, Estoniya, Belarus, Chernogoriya, Rossiya kabi davlatlarda aholi daromadlari mediana qiymatining 60 foizi kambag'allik chegarasi sifatida qabul qilingan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich mos ravishda Polshada 50, Ukrainada 75 foizni tashkil etadi.

3. Kambag'allik sub'yektiv (Poverty, subjective) usuli — individning o'zi o'zining kambag'al ekanligini aniqlaydi. Respondentlardan muayyan savollarga javob berish talab etiladi (masalan, shaxs o'zini kambag'al, deb hisoblaydimi). Ijobiy javob bergan ishtirokchilar kambag'al, deb hisoblanadi.

4. Kambag'allik, deprivatsion yondashuv (Poverty, deprivation approach) - unda muayyan me'yorlarda qabul qilingan xizmatlar va ne'matlar to'plamlarining iste'molidan mahrum bo'lgan individlar kambag'al, deb hisoblanadi. Deprivatsiya — bu iqtisodiy (oziq-ovqat, turar joy, va h.k.), ijtimoiy (sog'liqni saqlash, ta'lim va h.k.) va boshqa hayot uchun muhim bo'lgan boshlang'ich ne'matlardan mahrum bo'lishdir. Bunda kambag'allik chegarasi insonning ma'lum bir tovar va xizmatlardan foydalana olish imkoniyatini baholash orqali aniqlanadi.

Ayniqsa, O'zbekistonda "Kambag'allikni qisqartirish" bo'yicha maxsus vazirlik, "Kambag'allikni qisqartirish" ilmiy markazi tashkil etilib, mamlakatimizning har bir qishloq, tuman, shaharlarida aholi bandligini ta'minlab, kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlami bilan ishlash tizimida "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" joriy etildi. 2021-yil 15-oktabr sanasida poytaxtimizda joylashgan "Yoshlar ijod saroyi"da kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy ko'makka muhtoj bo'lgan qatlam bilan ishlash tizimi, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" doirasida qilingan ishlarning sarhisobiga bag'ishlangan brifingda 2017-2021-yillarda kambag'allikni qisqartirish yo'nalishida amalga oshirilgan islohotlar, ularning natijadorligi ko'rib chiqildi. Buning natijasini banklar tomonidan, nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz ayollar boquvchisini yo'qotganlar uchun ko'p qavatli uylar uchun uzoq muddatli kredit va subsidiyalar berilganligini misol qilishimiz mumkin. Mamlakatda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadida 2020-yildan pul-kredit siyosatini inflyatsiyani targetlash rejimiga o'tkazishning aktiv fazasi boshlanib, 2021-

yilda inflyatsiya darajasi 10%, 2023-yilda 5% darajadagi doimiy inflyatsion maqsadgacha pasaytirish belgilandi.

O`ylab qaraydigan bo`lsak, hududlardagi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolar - bu ishsizlik, daromadlarning o`rtachadan pastligi, kambag`allikning mavjudligidir. Ushbu muammolarga yechimlardan biri aholini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilikka jalb qilishni yanada kuchaytirish, o`zini o`zi band qilish shakllarini rivojlantirishdir. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: "Kambag`allikni kamaytirish-bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg`otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to`liq ro`yobga chiqarish, yangi ish o`rinlarini yaratish bo`yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, „demakdir“-deb ta`kidlaganlar.

Barchamizga ma`lumki, 2020-yil yurtimizga kirib kelgan COVID-19 pandemiyasi tufayli aholimiz ancha mushkul ahvolda qoldi. Kunlik daromad topadigan kishilarning ahvoli yanada og`irlashdi. Davlatimiz bu sharoitda o`z xalqini tashlab qo`ymadi, aholini ijtimoiy qo`llab-quvvatlash uchun Inqirozga qarshi jamgarma tashkil etildi va uning hisobodan fuqarolarga bir martalik pul mablag`lari ajratildi.

Ya`ni 2022-2026-yilga mo`ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi"da inson qadrini ulug`lashga yo`naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo`yicha belgilangan vazifalar doirasida 2026-yilga qadar ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to`liq qamrab olinishi ko`zda tutilgan. Shu bilan bir qatorda, "Ijtimoiy himoya yagona reystri"axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi bo`lgan shaxslar bo`yicha alohida ma`lumotlar ba`zasini yaratish, integratsiya qilish belgilab qo`yilgan. Shu asnoda davlatimiz ushbu yangi "Taraqqiyot strategiyasi"da ijtimoiy himoya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish bo`yicha o`z oldiga besh yillik vazifalarni belgilab oldi. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o`sish sur`atlarini ta`minlashning negizini aholi turmush darajasining yaxshilanishi tashkil etadi. Kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini ta`minlash yuzasidan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- birinchidan, yashash minimumidan past daromad olayotgan aholi qatlamlarini aniqlash va ularning o`zini o`zi band qilish shakllari bo`yicha ish bilan bandligini kengaytirib borish;

- Ikkinchidan, barcha hududlarda aholini arzon va sifatli iste`mol tovarlari bilan ta`minlash, ushbu tovarlar zahiralarni shakllantirish orqali ular narxlarining o`sib ketishi oldini olish;

- uchinchidan, kambag'alligi bor oilalardagi o`quvchi-yoshlarni o`quv markazlaridagi repetitorlik kurslarida chuqurlashtirilgan holda o`qitilishlarini yo`lga qo`yish uchun ushbu o`quv markazlariga soliqlardan imtiyozlar berish.

- to`rtinchidan, pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan aholini o`zini o`zi band qilish shakllariga jalb qilish va ijtimoiy sug`urtaga bazaviy miqdorda badal to`lashi orqali qarigandagi ijtimoiy ta`minotini yaxshilash;

- beshinchidan, hududlardagi mahallalarda aholini ôzini ôzi band qilish shakllari bo'yicha bandligini ta'minlash, kasbga yo'llash va boshqa masalalarda bevosita ko'maklashadigan maslahatxonalar tashkil etish

ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2018. – B.80.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 iyundagi PF–6012-sonli “Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF–6013-sonli “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni//<https://Lex.uz/ru/docs/4875784>.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 iyundagi 369-sonli “Yoshlarni vatan- parvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.// <https://Lex.uz/ru/docs/4850220>.

5. Vaxabov A.V., Mirzakarimova M., Xolmatov B. Ijtimoiy farovonlik nazariyasi va amaliyoti. -F.: “ClassiC”, 2023. -629b.